

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN TILLARI FAKULTETI ISPAN VA ITALYAN TILLARI
KAFEDRASI
ITALYAN TILI YO'NALISHI

KURS ISHI

MAVZU: NATALIA GINZBURGNING “TI HO SPOSATO PER ALLEGRIA”
ASARINING KOMPLEKS TAHLILI

Bajardi: Abduvohidov D.S

3-03 italyan guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Karapetova K.A

Samarqand-2016

Mundarija

KIRISH.....	3
I BOB. NATALIA GINZBURGNING ITALYAN ADABIYOTIDA TUTGAN O’RNI	
1.1 Natalia Ginzburg hayoti va ijodi.....	6
1.2 Natalia Ginzburg adabiyotdagi uslublari va uning o’ziga xosligi.....	8
I bobga xulosa.....	9
II BOB. NATALIA GINZBURGNING “TI HO SPOSATO PER ALLEGRIA” ASARI – DRAMATIK ASAR SIFATIDA	
2.1 Dramatik tur va dramatik asar haqida tushuncha.....	11
2.2 N.Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asaridagi qahramonlar tizimi.....	16
2.3 N.Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asarida makon va zamon talqini.....	23
2.4 N.Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asaridagi badiiy tasviriy vositalar.....	25
II bobga xulosa.....	27
XULOSA.....	28
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	29

Kirish

Vatanimizning mustaqillikka erishishi butun insoniyat hayotida murakkab muammolar ko'ndalang bo'lgan va tub burilishlar boshlangan davrga to'g'ri keldi. XX asr so'ngidagi mintaqadagi va mamlakat hududidagi og'ir vaziyatda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston dastlabki kunlardan boshlab huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda manaviy, madaniy, marifiy hamda mafkuraviy jabhalarda ham tub sifat o'zgarishlarni vujudga keltirgan yangi tarixiy davr boshlandi. "Ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oily qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqiyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish" ustuvor vazifa qilib belgilandi va bu sohalardagi islohatlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

Dunyoda xalqlar ko'p. Har bir xalq, avvalo, o'z tili, milliy urf-odat va an'analari, o'ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o'zligini namoyon qilishida tilning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida bu haqda alohida to'xtalib, shunday fikrlarni bayon qiladi: «O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir»¹. Shu sababli til bilish – madaniyat belgisi hisoblanadi. Chunki bu boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish, ulardan o'rganish va ular bilan tinch-totuv, hamkor-u hamnafas bo'lib yashash imkonini beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tili rivojiga katta e'tibor berilgani natijasida Konstitutsiyamizda, «Davlat tili haqida»gi Qonunda o'zbek tilining davlat

¹ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent, "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008y, 83-bet.

tili sifatidagi maqomi, uni rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi. Bu ona tilimiz taraqqiyotida ilgari hech ko'rilmagan yangi davr boshlanganining ifodasi edi.

Diyorimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tilimiz rivojiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Uning lug'at xazinasini yangi so'z va tushunchalar bilan boyib, xorijiy tillar bilan aloqasi kuchayib bormoqda.

Shuningdek, ilgari taqiqlab kelingan milliy merosimiz namunalarining qayta tiklanayotgani, muqaddas islom dini asoslari, umumbashariy qimmatga ega bo'lgan dunyo adabiyoti namunalarini tarjima qilish ishlari kuchaygani ham o'zbek tili imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, mustaqillik yillarida Qur'oni karim va hadisi sharif bir necha bor tarjima qilinib, nashr etildi.

Shu bilan birga, ona tilimizning imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, eng zamonaviy soha va tarmoqlarda faol qo'llanishini ta'minlash bo'yicha ko'pgina ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Ana shu jarayonda ishtirok etish ona tilimizdan bahramand bo'lib voyaga yetgan, shu til orqali o'zini, o'zligini, butun dunyoni tanigan insonlar sifatida siz-u bizning ham farzandlik burchimizdir.

Tadqiqotning vazifasi: Xorijiy tillarni o'rganish bilan bir qatorda, uning badiiy adabiyotini, dunyoga mashhur adiblarning asarlarini o'qish va tahlil qilish, xorijiy tillarga bo'lgan mehrimizni, hurmatimizni ko'rsatib turadi. Xususan, oily ta'lim tizimida ro'y berayotgan yangilanishlardan boxabar bo'lgan holda, italyan tilini o'rganish jarayonida bu tilning adabiyotini o'rgatish ham yo'lga qo'yilgan. Italyan adabiyoti o'ziga xos jihatlari bilan talabalarni maftun etadi. Natalia Ginzburg ham italyan adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchilardan biri bo'lib, ayniqsa, uni "Ti ho sposato per allegria" asari orqali ko'proq darajada bilib olishga va uning asar yozish uslubi haqida kengroq bilib olish maqsadida kurs ishi mavzusi sifatida tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi: ushbu tadqiqot ishining oldiga qo'yilgan asosiy maqsadi italyan adabiyotining zamonaviy janrida ijod qilgan yozuvchining asarlarida oila mavzusining yoritilishi, uning muallif nuqtai nazari bo'yicha tasnif qilishdan iborat.

I BOB. NATALIA GINZBURGNING ITALYAN ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

1.1 Natalia Ginzburg hayoti va ijodi

Natalia Ginzburg 1916-yil 14-iyulda Palermoda, kelib chiqishi yahudiy bo'lgan professor Giuseppe Levi va Lidiya Tansi oilasida tug'ilgan. Otasi Natalia Ginzburg uchun xususiy o'qituvchi yollab uyida o'qitadi va yozuvchi tengdoshlaridan ancha iste'dodli va bilimli qiz bo'lib voga yetadi. Uning bolaligi Turin shahrida o'tadi va o'zining adabiyotga bo'lgan qiziqishi va iste'dodi sababli 17 yoshida birinchi hikoyasi "Bolalar" (i bambini) hikoyasini yozadi va bu hikoya "Solaria" jurnalida 1933-yil chop etiladi. O'sha paytlari Italiyada fashizm rejimi mavjud bo'lib, ular asosan yahudiylarni va fashistik rejimga qarshi bo'lganlarni yozolmay qo'ymasdi.

Natalia Ginzburgning otasi Giuseppe Levi hamda uning uch o'g'li ham shu sababli qamoqqa olinadi va Natalia Ginzburg ham Turin universitetida o'qishni davom ettira olmaydi. 1938-yilda Turin universitetida rus adabiyotidan dars beradigan professor Leone Ginzburgga turmushga chiqadi va shundan so'ng barcha asarlarini Ginzburg familiyasi bilan imzolaydi. Leone Ginzburgning "Einaudi" nomli nashriyoti bo'lib, to'ydan so'ng Natalia Ginzburg yana asarlar yozishni davom ettiradi. 1942-yil uning birinchi romani "Shaharga olib boradigan yo'l" (La strada che va in citta') Einaudi nashriyotida chop etiladi. 1943-yil Natalia Ginzburg oilasi bilan Rimga ko'chib ketadi. Shu yili Leone Ginzburg qamoqqa olinadi va faol anti-fashist bo'lganligi sababli qiynoqlar ostida o'ldiriladi. Natalia Ginzburg uchta yosh bolasi bilan yolg'iz qolib ketadi. 1945-yilda yana Turinga qaytib keladi va Einaudi nashriyotida ish boshlaydi. Bunday og'ir sharoitda qolganiga qaramay, u yana ijod qilishda o'ziga kuch topa oladi va 1947-yilda uning ikkinchi romani "Shunday bo'lgan edi" (E' stato cosi) Einaudi nashriyotida chop etiladi va o'sha yili Natalia Ginzburg adabiy mukofot "Time"ni qo'lga kiritadi. Bu mukofot uni yanada ko'proq ijod qilishga undaydi. 1950-yilda u Londongda Italiya madaniyat institute ingliz tili professori va direktori bo'lib ishlaydigan mashhur tanqidchi va olim Gabriel Baldini

bilan turmush quradi va ular Rimga ko'chib ketadi. Rimda u o'zining ijodini yana davom ettiradi va shu davrda u o'zining juda ko'p asarlarini xalqqa taqdim etadi.

50-yillarda "Tutti I nostri ieri", "Valentino" kabi asarlari chop etilib, "Viareggio" adabiy mukofotiga sazovor bo'ladi. Bunday yutuqlarga erishgan yozuvchi o'z ijodiga butunlay sho'ng'ib ketadi va 60-70 yillarda ham ijodiy namunalari butun dunyoga taqdim etadi. Bularga misol qilib: "Tungi tovushlar" (Le voci della sera) (1961), "Kichik jasoratlar" (Le piccolo virtù) (1962), (Lessico familiare) (1963), "Senga xursandchilik uchun uylandim" (Ti ho sposato per allegria), "L'inserzione" (1965), "Qulupnay va krem" (fragola e panna) (1966), "Kotiba" (La segretaria) (1967), "Dengiz mamlakati" (paese di mare), "Xato eshik" (La porta sbagliata) (1968), "Hech qachon mendan so'ramasliging kerak" (Mai devi domandarmi) (1970), "Qadrli Maykl" (Caro Michele), "Dengiz mamlakati va boshqa komediyalar" (Paese di mare e altre commedie) (1973), "Hayoliy hayot" (Vita immaginaria) (1974), "Oila" (Famiglia) (1977) asarlarini aytib o'tishimiz mumkin. Iste'dodli va adabiyotni sevuvchi bu yozuvchi "Strega" mukofotiga loyiq deb topiladi va 1963-yildayoq bu mukofotga sazovor bo'ladi. Bunday iste'dodli ayolni siyosat ham chetlab o'tmadi, 1983-yilda u "Italiya kommunistik partiyasiga" deputat etib saylandi. Bundan ko'rishimiz mumkinki uning nafaqat adabiyot va ijtimoiy hayotda, balki siyosiy hayotda ham o'z o'rniga ega bo'lgan iste'dodli va har jabhada o'zini o'rnini topa olgan yozuvchidir. "Manzonilar oilasi" (La famiglia Manzoni) (1983) asari unga yana bir mukofot "Battuga" ni olishga imkon berdi. Shundan so'ng u yana bir necha adabiyot sohasida o'z qiymatiga ega bo'lgan asarlarini yozdi. "Shahar va uy" (La città e la casa) (1984), "Opere, volume 1" (1986), "Opere, volume 2" (1987), "La città e la casa e scritti sparsi", "Serena Kruz yoki haqqoniy hayot" (Serena Cruz o la vera giustizia), "Teatr" (Teatro) (1990), "O'z o'ziga gapirish qiyin" (È difficile parlare di sé) (1999), "Uni bila olmayman" (Non possiamo saperlo, Saggi) (1973-1990), "Hammasi teatr" (Tutto il teatro", "5 ta qisqa roman va boshqa hikoyalar" (Cinque romanzi brevi e altri racconti) (2005), "Ludovikka xat" (Lettere a Ludovica) (Con Cesare Pavese e Felice Bablo) (2008).

Zamonaviy italyan adabiyotida ijod qilgan yozuvchi va shoirlar orasida Natalia Ginzburg hayot yo'lini ijod bilan bog'lagan yozuvchi desak mubolag'a bo'lmaydi. U shunday asarlar yaratganki, siz bu asarlarni o'qib uning qanchalik serqirra ijodkor bo'lganligini fahmlay olasiz va bunday asarlarni boshqa asarlar bilan also tenglashtirib bo'lmaydi. Uning asarlaridagi soddalik va samimiyligni boshqa asarlardan topishimiz mumkin lekin asarlari butunlay o'zgacha uslubda yozilgan. Har bir asarida o'zgacha muhit va o'zgacha jarayonlar yoritilgan.

1.2 Natalia Ginzburg adabiyotdagi uslublari va uning o'ziga xosligi

Har bir yozuvchining o'ziga xos uslub va usullari bo'lgani kabi Natalia Ginzburg ham bundan mustasno emas, ya'ni Natalia Ginzburg ham o'ziga xos va boshqalarning ijodiga o'xshamagan uslubda qalam tebratgan. U yaratgan barcha asarlari boshqacha bir xususiyatga ega ekanligi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turardi. O'zining tabiiy yo'nalishda ish yuritishni istamasligi, ko'rkam va qarshi kurash bilan ko'ngilda kechayotgan his tuyg'ularini ifodalash va ko'proq real va ta'sir kuchi barchaga birday yetib boradigan hissiy kechimmalardan keng qo'llaydi, uzoq nutqlari misli rasmlarni ifodalaganday tuyuladi va bunday yo'nalishda yozishni afzal ko'rishini bir necha bor ta'kidlab o'tadi. Biz buni u tomonidan yaratilgan buyuk san'at asarlaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Uni "tasvirlar orqali gaplashishi", Leone Ginzburg haqida ko'proq yaqin va alamli bir rasmga solingandek oilaviy mavzular haqidagi asarlari kitobxonlarda qiziqish uyg'ota oldi. Giulio Einaudi ofisida bir portret osilganligini eslaganda bir vaqtnig o'zida, kutilmaganda reining munosabati, shuningdek, shahar, yolg'izlikni ham tasvirlab "Memoriya" ya'ni yaxshigina mantiqiy ma'vzuga ega bo'lgan "Xotira" nomli asarini yozadi "...ko'chada yurganingda hech kim senga ergashmaydi. Agar qo'rqsang hech kim sening qo'lingdan tutmaydi. Sening ko'chang, sening shahring ham emas. Yorug' shahar seniki emas: Yorug' shahar boshqalarniki..."

Bu kitobida shoira fazilatlari uning qo'shiqlari orqali "bir do'st portreti" ni ifodalashi muhim ahamiyatga ega. Natalia Ginzburg, shuningdek, do'stlik

munosabatlarini shahar sifatida tasvirlab bergan. O'z do'sti Cesare Pavese haqida ham so'zlab o'tadi: "Bizning shahrimiz o'xshash, biz buni yo'qotgan do'stimizdan anglayapmiz, qaysiki u uchun qimmatli edi; u qanday ediya: mehnatkash, u bu mehnatga bo'lgan ishtiyoqidan o'jar bo'lib qolgan edi; va hozirda esa u dangasa bo'lgan va dangasaligicha qolib orzu qilishga shay...".

Nihoyatda aniq bir uslub yaratuvchi yozuvchining asarlarida uning uslubi orqali yaratiladigan ijodiy muhsuli zamirida uning juda ham aqlli shaxs ekanligi namoyon bo'ladi. Uning yozuvlarida ostida asosan ironiya, odamzot va hayotning qiyosiyliigi haqidagi ma'no va mazmunlar yotadi.

Bundan tashqari, muallif qiziqarli yozmani yozish va o'zini baxtli yoki baxtsiz bo'lishligini farqlay olishini so'z ustasi ekanligi orqali tasvirlab bergan. Natalia Ginzburg fantaziyani uyg'otuvchi omil bu xayolimizda baxtsizlik xotiralarini uyg'otuvchi kechimmalarda deb biladi. Shuning uchun ham u o'quvchilarga o'z asarlarini shu qadar ishonchli va aniq yetkazib berganki, hatto o'quvchi ham asar o'qib turib uning ichiga sho'ng'ib ketadi. U quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Biz hayotimizda bizning qalb, tashnalik va huzursizliklarimizga ko'z yuma olmaymiz" deydi. U bir xil baxt og'riq keltirishi mumkin, shuning uchun, xavfli bo'lishi mumkin deydi.

Natalia Ginzburg kitoblarida odatdagi mavzularni oila mavzulari guruhi, ayol hayoti, ayol chekadigan azoblar va qiyinchiliklar, shuningdek, ko'p muvaffaqiyatsiz, anglashilmovchiliklar hamda yolg'izlik ichidagi munosabatlarni ifodalagan. Uning asarlarida asosan bosh qahramon ayol obrazi bo'lib, u ikki xil tipda kelishi mumkin: birinchisi o'ziga ishonmagan va soda obraz bo'lsa, ikkinchisi o'ziga ishongan hayotiy tajribaga ega va boshqalardan farq qilib turadigan obraz bo'lgan.

I bobga xulosa.

Biz yuqorida ko'rib chiqqanimiz bo'yicha shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Natalia Ginzburg adabiyot sohasida nafaqat iste'dodli va mohir qalam egasi, jamiyatda o'z o'rnini topa olgan yozuvchilardan biri, balki shu bilan birga noyob

hamda mohir romannavis va adabiyotshunos sifatida ham keng ommaga tanilgan ijodkorlardan biri desak yanglishmaga bo'lamiz. U hayoti davomida ko'p qiyinchiliklarga uchragan bo'lishiga qaramasdan, hayot yo'li davomida olg'a harakat qila olgan sabrli va bardoshli ayol ekanligiga amin bo'lamiz. Uning asarlari nafaqat Italiyada, balki dunyoning boshqa shaharlarida ham sevib mutolaa qilinadi.

Har bir asarida o'zgacha voqea bayon etilgan bo'lsada, asar qahramonlarini kuzata turib, ular bevosita yozuvchi hayoti bilan bog'liq deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Asarlaridagi oilaviy munosabatlar, do'stlik va qarindoshlik rishtalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda bu mohir va iste'dodli yozuvchi tomonidan to'laligicha namoyon etib bera olganligiga guvoh bo'lamiz.

II BOB

NATALIA GINZBURGNING “TI HO SPOSATO PER ALLEGRIA” ASARI – DRAMATIK ASAR SIFATIDA

2.1 Dramatik tur va dramatik asar haqida tushuncha

Dramaning tasvir predmeti – harakat, u obyektning plastik obrazini yaratadi. Dramada subyekt – ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Agar bular dramaning turga xos belgilovchi xususiyati bo'lsa, dramatik asarning qurilishi, poetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyat uning sahna uchun yaratilishidir, ya'ni sahnaga mo'ljallab yaratilgan asar ijroni ham ko'zda tutishi zarur bo'ladi. Shuning uchun, dramadagi harakat – syujet voqealari makon va zamonda cheklangan bo'ladi. Ijro vaqtiga sig'ish uchun asarning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanuvchi syujetga qurilishi taqozo etiladi. Shunisi bizga ravshanki, bu xil syujetning rivojlanish vaqti ham chegaralangan, shu bois ham syujet voqealari sabab-natija munosabatlari asosida konsentratsiyalanadi. Voqealar orasidagi sabab-natija munosabati esa ularning makoniy va zamoniy jihatlardan-da yaqin bo'lishini taqozo qoladi. Dramaturg asarni yaratish jarayonidayoq uning syujet voqealari ijro vaqtiga sig'ishi masalasida qayg'urishi lozim. Shunga ko'ra, dramatik asarda syujet voqealarining keskin konfliktlar asosida shiddat bilan rivojlanishi zaruratga aylanadi. Bundan tashqari, dramatik asardagi syujet voqealari yuz beradigan makon ham cheklangan, ya'ni voqealar sahnada shartli qayta yaratish mumkin bo'lgan, ya'ni sahna ustalari, rassom tomonidan o'sha joy illyuziyasini hosil qila oladigan dekoratsiyalarni ishlashi mumkin bo'lgan, makonda kechadi. Boz ustiga, harakat makoniy o'zgarishlar jihatidan ham cheklangan, ya'ni dramatik asar voqealari ko'pi bilan to'rt-besh joydagina kechishi mumkin.

Dramaturg asarda jonlantirmoqchi bo'lgan hayot materialining barcha unsurlarini ham sahnada qayta yaratish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun, dramatik asar boshdanoq “shartlilik” kasb etadi. Ya'ni, muallif mavjud ijro imkoniyatlaridan foydalanib, ayrim ishoralar orqali tomoshabin (o'quvchi) tasavvurida ko'p narsalarni uyg'otishi, bevosita sahnada jonlantirilishi mumkin bo'lgan voqealarni

to'ldirish zarur bo'ladi. Masalan, avtor remarkalarida "sahna ortida otlar dupuri, qilichlar jangi", "sahna ortidan keskin to'xtagan mashina ovozi eshitiladi" qabilidagi ishoralar beriladi, ularning yordamida sahnada jonlanmagan narsani shartli (ya'ni, o'quvchi tasavvuridagina) jonlantirish mumkin bo'ladi. Shunga o'xshash, syujetga kiritishning imkoni bo'lmagan voqea haqida personajlar tilidan muxtasar hikoya qilinishi ham shartlilikning bir ko'rinishidir. O'z navbatida bu shartlilik personaj nutqiga ham ta'sir qiladi: deylik, personajlarning har ikkisi ham o'sha voqeadan xabardor, shunga qaramay, ularning "suhbati" o'quvchi (tomoshabin)da tasavvur hosil qilish uchun zarur va shu zaruriyat suhbatni tabiiylikdan chiqishiga, shartlilik kasb etishiga olib keladi. Umuman, tafsilotlarni ko'proq shu yo'sin (personajlar tilidan) berish majburiyati dramatik asar personajlari nutqining biroz "sun'iy" bo'lishiga olib keladi. Asosiy nutq shakli bo'lmish dialogik nutq bilan bir qatorda, dramatik asarda monologik nutq ham qo'llaniladi. Monologik nutq shaklida ko'pincha personajlarning mushohadalari beriladiki, haqiqatda kishining ongida kechuvchi bu jarayonning sirtga chiqarilishi – ovoz chiqarib o'ylash ham shartlilikning bir ko'rinishidir. Ayni paytda, dramadagi monologik nutq qurilishida muayyan o'ziga xosliklar mavjud. Zero, bu nutq ko'proq personajlarning o'zi bilan o'zi yoki hayolidagi kim bilandir suhbat, bahsi, kimgadir murojaati tarzida quriladi. Ya'ni, bitta personaj tilidan aytilgani holda ham dramadagi monologik nutq qisman diologik asosga egadir.

Dramatik asarning o'qilishi va sahna talqinida bir qator o'ziga xosliklar mavjud. Dramani o'qiyotgan o'quvchining ijodiy faolligi bilan shu asar asosidagi spektaklni tomosha qilayotgan tomoshabinning faolligi bir xil emas. O'quvchi o'qish jarayonida "rejissor" vazifasini zimmasiga oladi, dramani tasavvuridagi sahnada jonlantiradi; ayni paytda u "aktyor" sifatida har bir personajning rolini ham o'ynashi kerak. Dramada obyektiv ibtidoning ustivorligi uning turli o'quvchilar tasavvurida turlicha "sahnalashtirilishi"ga asos bo'ladi. Sahnalashtirilgan dramatik asarda badiiy muloqot zanjiri uzayadi: tomoshabin va dramaturg orasida rejissor (aktyorlar, rassom, bastakor va h.k) o'rinlashadi. Boshqacha qilib aytganda, sahnalashtirilgan dramatik asar so'z san'ati doirasidan chiqib sintetiklik kasb etadi, sababki, endi unda teatr, rassomlik,

musiqa san'atlari uyg'unlashib ketadi. Bundan ayon bo'ladiki, drama boshqa san'at turlari bilan o'zaro aloqada yashaydi va rivojlanadi. Zero, dramaning tabiati, ya'ni ijro uchun mo'ljallanganligi, uning shu san'at turlari bilan uzviy aloqada bo'lishini taqozo etadi.

Dramatik turning asosiy janrlari sifatida tragediya, komediya va drama ("drama" atamasi ham adabiy tur ma'nosida, ham o'sha turning bir janri ma'nosida qo'llaniladi) ko'rsatiladi. Dramatik asarlarni janrlarga ajratishda ularning asosiy estetik belgilari tayinlanadi. Tragediyaning asosiy estetik belgisi – tragiklik, komediyaning asosiy estetik belgisi – komiklik, dramaning asosiy estetik belgisi dramatiklik sanaladi. Aytish kerakki, adabiyotshunoslikka oid ishlarda biz "asosiy estetik belgi" deb atagan narsa ko'proq pafos deb yuritiladi. Pafos deganda tasvirlanayotgan xarakterlarni milliy va umuminsoniy ahamiyatini e'tiborda tutgan holda g'oyaviy-hissiy idrok etish hamda baholash natijasi o'laroq yuzaga kelgan, asarning butun to'qimasiga singdirib yuborilgan ruh tushuniladi. Bu jihatdan qaralsa, tragediya tragik pafos bilan, komediya satirik yoki yumoristik pafos bilan, drama dramatik pafos bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Pafos atamasini qo'llashdagi ma'no turlichaligini e'tiborga olib, biz "asosiy estetik belgi" tushunchasini qo'llashni ma'qul ko'ramiz.

Tragediya (grek. – "echki qo'shig'i") qadimdayoq shakllangan dramatik janr bo'lib, genetik jihatdan u ma'bud Dionisning o'limi va qayta tirilishi munosabati bilan ijro etilgan marosim qo'shiqlari asosida yuzaga kelgan. Tragediyaning janr xususiyatlari tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon tushunchalari bilan belgilanadi. Tragik konflikt deganda mohiyatan yechimi yo'q, mavjud sharoitda hal qilib bo'lmaydigan ziddiyat tushuniladiki, u har vaqt qahramon ongida kechadi. Qadimgi tragediyalarda konflikt shaxs va taqdiri azal o'rtasida (mas. "Shoh Edip") kechgan bo'lsa, keyinroq bu konflikt tomonlarining ikkinchisi o'zgardi: taqdiri azal o'rnini endi shaxsdan yuqori turuvchi oliy ma'naviy kuchlar (bunda yozilmagan, biroq inson hayotini muayyan tartibga soluvchi ma'naviy qonun-qoidalar, masalan, burch hissi kabilar nazarda tutiladi) egallaydi. Tragik konflikt asosida yuzaga

keluvchi tragik holatning mohiyati shundaki, qahramon tashqi kuchlar bilan emas, balki o'zi bilan o'zi olishadi, mana shu olishuv oqibati o'laroq chuqur ma'naviy iztirob, ruhiy qiynoqlarga duchor bo'ladi. O'zining foje holatida ham maqsad sari intilishlik, ruhiy iztiroblar-u qiynoqlarga qobillik tragik qahramonga xos xususiyatdir. Tragik qahramon qarshisida erkin tanlov imkoniyati mavjud – u maqsaddan voz kechishi, oson yo'lni tanlashi mumkin, biroq u bunday qilmaydi, o'zining jisman yoki ma'nau halokatga uchrashi mumkinligini bilgan holda ham maqsadidan, e'tiqodidan qaytmaydi. Xuddi shu asosda tragik qahramonning harakter kuchi, uning favqulotda shaxsligi namoyon bo'ladi. Masalan, Edip yoki Gamletni oling: ularning ikkisi ham yuqorida tavsif etilgan yo'ldan boradi. Deylik, Edip yurt boshiga kelgan ofatning sababchisi o'zi bo'lishi mumkinligini sezganidayoq taftishni to'xtatishi, “yopiqlik qozon yopiqlicha” qolaverishi mumkin edi. Biroq u – tragik qahramon – chekiga tushgan iztirobu qiynoqlar qadahini tubigacha sipqoradi. Realizm bosqichigacha yaratilgan tragediyalarda tragik qahramon sifatida ko'proq mifologik personajlar, shohlar, shahzodalar, malikalar-u sarkadalarining olinishi ham bejiz emas, zero, o'zining foje holatini idrok eta olish, qalbi-yu ongida ma'naviy-ruhiy iztiroblarni kechira olish, shunda-da sinmay maqsad sari yurishlikka o'rtamiyona odamlarning chog'i kelmaydi.

Realizm bosqichiga yaqinlashgan sari dramaturgiyada tragediya o`rnini, yetakchilik mavqeini drama egallay boshlaydi. Drama o`zining mavzu jihatidan turfaligi, turfa hayotiy ziddiyatlarni badiiy talqin qilish imkoniyatlarining kengligi bilan xarakterlanadi. Dramaning tragediyadan farqi shundaki, tragik konflikt qahramon ruhiyatida kechsa, dramatik konflikt qahramon bilan tashqi kuchlar orasida kechadi. Ayni paytda, dramadagi konflikt ham juda keskin bo`lishi, qahramonni iztirobu qiynoqlarga solishi va oxir-oqibat halokatga olib borishi mumkin. Biroq bularning bari tashqi quchlar bilan to`qnashuv natijasi o`laroq sodir bo`ladi, asar markazida dramatik konflikt turadi.

Komediya (gr. "komos" - ommaviy qo`shiq nomi) dramatik turning komiklikka asoslangan janridir. Komediyaning markazida komik xarakter turadi. Odatda komik xarakter deganda o`zida idealga tamoman zid illatlarni jam etuvchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi personajlar nazarga olinadi. Bu o`rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik personaj o`zining mavjud holatini idrok etmaydi, o`ziga real baho berishdan o`zib. Aksincha, u o`zini bor holiga nisbatan tamoman teskari baholashga moyil: g`irt tentak bo`lgani holda o`zini aqlli sanaydi, ma`nan tuban bo`lgani holda o`zini pokdomon biladi - o`zini o`zgalarga shunday sifatlarda taqdim etishga chiranadi.

Natalia Ginzburgning komediya janrida yozgan eng taniqli asarlaridan biri bu "Ti ho sposato per allegria" (Senga xursandchilik uchun uylandim). N.Ginzburg komedik asarini 1965-yilda yozadi va keyinchalik bu asari "Ti ho sposato per allegria e altre commedie" (Senga xursandchilik uchun uylandim va boshqa komediyalar) nomi bilan 1968-yilda yana chop etadi. Asar 3 qismdan iborat bo`lib, komediya uslubida yozilgan, hatto teatrlarda ham sahnalashtirilgan. Yozuvchi bu asarida ko`proq dialoglardan foydalangan. Asarning bosh mavzusi ikki yosh bo`lib, bir-birini sevimliklarda yaqinda turmush qurishgan oilaning kun kechirishi va o`sha oilada sodir bo`ladigan qiziq voqealar orqali asar syujetining yoritilib borishidan iborat.

Asardagi asosiy qahramonlar Giuliana va Pietro ismli juftlik bo`lib, ularning Viktoria ismli uy xizmatchisi bo`ladi. Bundan tashqari asarda Pietroning onasi, Ginestra ismli singlisi va shu kabi bir qator ikkinchi darajali obrazlar ham qatnashgan. Asosiy voqealar Giuliana va Pietro ismli er-xotin bilan bog`liq. Ular bir bazmda tasodifan uchrashib bir-birlarini yoqtirib qoladilar va bir oydan so`ng turmush quradilar. To`ylaridan bir hafta o`tgandan so`ng bu komediya boshlanadi. Asarning komediya janrida yozilganligini birinchi satrlardanoq ko`rishimiz mumkin:

- "Pietro: Il mio cappello dov'è ?
- Giuliana: Hai un cappello?" [1141]
- "Pietro: Mening shlyapam qayerda ?
- Giuliana: Sening shlyapang bormi ?"

Bu so'zlarni o'qigan har bir o'quvchining yuziga beixtiyor tabassum paydo bo'ladi va keyin nima bo'lishiga qiziqib o'qishni davom ettiradi. Keyingi satrlarda esa ularning oilaviy munosabatlari yoritiladi:

“Pietro: L'avevo. Adesso non lo trovo più.

Giuliana: Io non me lo ricordo questo cappello.

Pietro: Forse non te lo puoi ricordare. Non lo metto tempo. Noi è solo un mese che ci conosciamo.

Giuliana: Non dire così, “un mese che ci conosciamo” come se io non fossi tua moglie.

Pietro: Sei mia moglie da una settimana. In questa settimana, e in tutto il mese passato, non ho mai messo il cappello. Lo metto solo quando piove forte, oppure quando vado ai funerali”.

-“ Pietro: Shlyapam bor edi. Hozir uni topolmayapman.

-Giuliana: bu shlyapani men eslolmadim.

-Pietro: ehtimol, uni eslay olmayсан. Uni ko'p vaqtdan beri kiymadim. Biz tanishganimizga bir oygina bo'ldi.

-Giuliana: xuddi hozir men sening xotining emasdek, “tanishganimizga biro y bo'ldi” deb aytma.

-Pietro: sen bir haftadan beri mening xotinimsan. O'tgan hafta va butun bir oy ichida uni umuman kiymadim. Uni faqat kuchli yomg'ir yog'ganda yoki motam marosimiga borganda kiyaman”.

2.2 Natalia Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asaridagi qahramonlar tizimi

Asar bosh qahramonlari Giuliana va Pietro bo'lib, asarning to boshidan boshlab oxirigacha ularning ishtiroki yaqqol ko'zga tashlanadi. Butun bir asarning asar sifatida shakllanishiga ham o'zaro Pietro va Giuliananing oilaviy munosabatlari katta ahamiyatga ega. Ikkinchi darajali qahramonlar : Pietro va Giuliananing uy xizmatchisi Vittoria, Pietroning onasi, Pietroning singlisi (Ginestra), Giuliananing onasi, Elena,

Topazia, va Manolo. Bu ikkingchi darajali personajlar ham asarning shakllanishiga, voqealar rivojiga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bundan tashqari yana bir qancha epizodik personajlar qatnashuvi, aralashuvi orqali asar yanada qiziqarli, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadigan, voqealarga boy holatga keltirilishiga sababchi bo'ladi.

Giuliana. Sodda, samimiy va kambag'al bir qiz bo'ladi. U hayoti davomida doimo qiyinchilik ko'rib kelgan. Asarda Giuliananing yoshlik chog'i, uning orzulari haqida asarda keltirilgan quyidagi bir lavha orqali bir oz bo'lsa ham tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin: "Invece a me studiare non mi è piaciuto, e mia madre voleva che diventassi maestro, ma io volevo fare o l'attrice, o ballerina" "Menga o'qish yoqmas edi va oyim meni o'qituvchi bo'lishimni xohlar edi, ammo men yo aktrisa bo'lishni, yo ballerina bo'lishni xohlar edim" [1146]. Bu yerda biz Giuliana yoshligidanoq o'qishga qiziqishi bo'lmagani, onasi Giulianani kelajakda o'qituvchi bo'lishini, ammo Giuliana esa aktrisa yoki bo'lmasa balerina bo'lishni xohlaganligini ko'rishimiz mumkin. Giuliana oyisining unga qarshi chiqqanligi uchun ham u uyidan o'n yeti yoshida qochib ketadi: "Così, a diciassette anni sono scappata di casa" "Shuning uchun ham, o'n yeti yoshimda uyimdan qochib ketdim" [1146]. Giuliana uydan qochib ketganidan so'ng uyiga kam boradigan, oyisi bilan yaxshi chiqishmaydigan bo'lib qoladi. Ustiga ustak u o'zi o'ylagan orzusini amalga oshira olmaydi, ya'ni u na aktrisa, na ballerina bo'lib yetishadi. "Ci ritorno ogni tanto, ma di rado. Non vado d'accordo con mia madre. Appena insieme, cominciamo subito a litigare. L'ho delusa, perché non sono diventata né maestro, né attrice, né ballerina" [1146]. Giuliana uyidan qochib ketgan ilk kunlari o'zini juda baxtli his qiladi, chunki u endi tug'ilib o'sgan Pieve di Monteseccoda emas, balki Rimda yashar edi. U qanday qilib aktrisa bo'lish mumkin ekanligini bilmas edi. Uning o'ylashicha, u shunchaki ko'chada u yerdan bu yerga yursa, vaqti kelib, kimdir uning oldida to'xtab, unga: "Ha, men o'z filmimga izlayotgan aktrisa aynan siz bo'lasiz" deyishi haqida hayol surib ko'chada bekordan bekor u yerdan bu yerga sang'ib yurar va kutardi. Bu orada uning otasi unga yuborib turadigan pullarining qariyb hammasini ishlatib bo'lgan edi. Shuning uchun Giuliana

bir qog'oz do'koniga ishga kiradi, ammo u yerda u unchalik uzoq qolmaydi. Chunki bir kuni Giuliana qo'lidagi siyoh to'la idishni mijozlardan birining ko'yilagiga to'satdan to'kib yuboradi. Qog'oz do'konining boshlig'i buni ko'rib jaxl qiladi va Giulianani ishdan bo'shatadi. Shundan so'ng, Giuliana hayotini ozgina muddat mobaynida ishsiz o'tkazishiga to'g'ri keladi. Bir necha kundan so'ng Giulianani Paoluccio, unga oshiq bo'lib qolgan yigit, disk do'koniga ishga oladi. Aksincha, Giuliana esa unga oshiq emas edi. Giuliana disk do'koniga har kuni disk eshitish uchun keladigan, qora, uzun mo'ylovli, oppoq yuzli, ko'zlari ma'yus; hech qachon kulmaydigan bir shaxsni uchratadi. Xullas, Giuliana unga oshiq bo'lib qoladi. Uning ismi Manolo edi. Giuliana Manolo bilan birga uning uyida yashay boshlaydi. Ular o'rtasida hech qanday yaqin rishtalar, yaqinliklar bo'lmagan edi, chunki Manolo har doim Giulianaga uni seva olmasligi haqida aytardi. Manolo bilan Giuliana birgalikda ozgina vaqt yashab, oxiri yaqinlik munosabatlarini o'rnatadi. Garchi ular o'rtasida yaqinlik munosabatlari paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo Manolo hech qachon unga uni yaxshi ko'raman deb aytmas edi, Manolo Giulianaga oldingi xotining chiroyli ekanligi, o'ziga bir xoslik borligi haqida gapirib berardi. Giuliana esa o'zini xo'rlanganday his qilardi. U o'zini shunchalik baxtsiz his qiladiki, hatto u oyisi bilan Pieve di Monteseccoda yashagan paytlari u yerda yashash joniga tegib ketgan bo'lsa ham, u o'zini bunchalik baxtsiz his qilmaganligi haqida aytadi. Giuliana Manolo bilan birga yashay boshlagach, u o'z ishini ham tashlab qo'yadi, u endi ortiq Paoluccioni ham ko'rmay qo'yadi, kuni bilan kravatda qoladigan yoki bo'lmasa gilam ustida mushukni siypalab o'ychan holda o'tiradigan bo'lib qoladi. Giuliana har safar unga Manoloning uylanishi haqida o'ylar edi, lekin Giuliana shubhada, chalkash holatga tushib qolgan edi, chunki Manolo Giulianaga uylanishi uchun birinchi bo'lib u oldingi xotini bilan chet davlatlarning birortasiga chiqib u yerda ajrashib kelishi lozim edi, "1975-yilgacha Italiyada ajrashish bo'lmagan". Mana shularni o'ylab Giuliana shubha-yu chalkash vaziyatda qoladi. Bir kuni Giuliana tongda uyg'onganida uyda Manolo bo'lmaydi, uni kuni bilan kutadi, ammo Manolo qaytib kelmaydi. Giuliana Manolodan farzand kutayotgan bir paytda Manoloning uydan chiqib ketib qaytib

kelmasligi Giulianani tahlikaga solib qo'yadi. Vaqt o'tishi bilan Giuliana bu tushkunlikka ham ko'nikib ketadi, har kuni ko'chada sayr qilishga chiqa boshlaydi. Bir kuni u do'kondan qaytib kelayotganda uyining oldida bir qizni, ya'ni Manoloning sobiq xotinini uchratib qoladi. Uning ismi Topazia edi. Topazia bilan ancha yaxshi kelishib ketadi. Giuliana bir kuni Topazianing br suratchi do'stini uchratib qoladi va o'sha suratchi uni Margutta ko'chasidagi bir uyga bayram kechasiga taklif qiladi. Ana shu bazmda Giuliana Pietroni uchratadi, shundan so'ng ular turmush qurishadi.

Pietro. Pietro bu asarda hamma narsani o'z vaqtida bajaradigan kishilar turidan hisoblanadi. Pietro baland bo'yli, kelishgan, onasining chizig'idan chiqmaydigan, onasiga mehribon, har doim kastyum-shim kiyadigan, tartibli, qattiqqo'l va mehribon shaxs sifatida tasvirlanadi. Pietro o'ziga to'q, badavlat oiladan, katta uyi, yaxshi bir ishi bor obrazi sifatida talqin etiladi. Pietroning oyisi hamda bir singilisi bo'ladi. Uning bitta-yu bitta sevimli shlyapasi bo'lib, u o'sha shlyapani kuchli yomg'ir yog'ganda yoki biror bir janozaga borganda kiyib ketar edi. Pietro uchun bu shlyapani o'rnini bosa oladigan shlyapa yo'q edi. Agarda u o'z shlyapasini topolmasa, boshqa shlyapani kiyib ketmas edi, uni oxirigacha izlar edi. Asarning boshlanishi ham aynan ana shu shlyapa yo'qolib qolgan bir paytda uni izlash bilan boshlanadi, chunki Pietro o'zining shifokor do'sti Lamberto Genovaning janozasiga borishi kerak edi. Shlyapa topilgach, Pietro zudlik bilan ketishi kerakligini, uni onasi kutib turganligini aytganidan so'ng Giuliana uning onasi haqida kinoyali gap aytadi. Bundan Pietroning jaxli chiqadi. Ya'ni bu epizodda biz Pietro onasini qanchalar yaxshi ko'rishi, onasi haqida yomon gap ketganda qanchalik jaxli chiqishini Natalia Ginzburg ajoyib tarzda ifodalab bergan. Pietro: "Adesso devo andarmene, perché mia madre mi aspetta. Dobbiamo andare a questo funerale". Giuliana: "Che allegria, andare a un funerale con tua madre". Pietro: "Perché di mia madre parli sempre con un tono sfottente?" [1144]. Mana shu dialogdan so'ng Pietroning onasiga naqadar mehribon ekanligi, onasi uchun hamma narsaga tayyor ekanligini ko'ra olamiz. Pietro aslida Giulianaga achinganidan, unga rahmi kelganidan uylanganligini asar boshida ham, oxirida ham ta'kidlab o'tadi. Pietro Giulianani ilk bor bir bazmda uchratib qoladi va o'sha kundagi uchratishidan

so'ng oxiri Pietro Giulianaga uylanadi. Pietro bilan Giuliananing nikohlariga hali endigina bir oy to'lgan bo'lishiga qaramasdan ular o'rtasida ba'zi bir ziddiyatliklar, kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Pietro unga nafaqat rahmi kelgani uchun uylangani, balki unga xursangchilik uchun uylanganini ham asar davomida takror-takror keltirib o'tadi. Shu o'rinda Giuliananing ham Pietroga pullari uchun turmushga chiqqanini ham bilib, buni to'g'ri qabul qiladi. Pietroning hamma narsaga og'ir-bosiqlik bilan qaror qabul qilishi uning naqadar zukkoligi, sabrli ekanligi haqida darak beradi. Pietro Giulianaga uylangani haqida ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa-da, ammo uning onasi Giulianani hayotda ko'rmagan edi va bir kuni uning onasi ularning uyiga tashrif buyurishini aytadi. Giuliana Pietroning onasiga yoqish-yoqmasligi haqida qayg'uradi va Pietrodan uning onasiga yoqish yoki yoqmaslik ehtimoli haqida so'raydi. Pietro unga albatta yoqasan, men buni sezyapman deb Giulianani tinchlantirib, tasalli berib turadi. Asar oxirida Pietro xuddi ta'kidlaganidek, uning onasiga Giuliana yoqib tushadi. Pietro o'zining aqlliligi, topqirligi va mehribonligi tufayli oilasidagi munosabatlarni, kelin va onas o'rtasidagi munosabatlarni birday muvozanatda ushlab tura olishi har bir italiyan oilasidagi erkak shu kabi hislatlarga ega bo'lishi kerak degan tushunchani Natalia Ginzburg ilgari suradi va uni qoyilmaqom mahorat bilan tasvirlab beradi.

Vittoria. Vittoria bu asarda ikkinchi darajali qahramon obrazida tasvirlangan bo'lsa-da, uning asarda ko'p o'rinlarda qatnashishi bizning tasavvurimizda uning roli xuddi birinchi darajali bosh qahramon obrazi sifatida gavdalanadi. Vittoria Pietro va Giuliananing uy xizmatchisi bo'ladi. Vittoria ularning uyiga kelganiga endigina uch kun bo'lgan bo'ladi. Vittorianing aqlli ayol ekanligi Giuliana bilan bo'lgan suhbatidan ko'rinib turadi. Vittoria: "Io ho una memoria incredibile. Quando andavo a scuola, imparavo tutto subito, i fiumi, le capitale, le guerre, tutto, tutto. Maestra diceva: Sentiamo Vittoria, quell'ache sa così bene le capitali" [1145]. "Mening aql bovar qilmas xotiram bor edi. Maktabga borganimda hamma narsani, daryolarni, poytaxtlarni, urushlarni, hamma-hammasini tez o'rganardim. O'qituvchim: "Qani, endi poytaxtlarni yoddan biladigan Vittoriadan eshitamiz" – derdi". [1146] Vittoria

“Fara Sabina”da yashar edi. U yoshligidan mehnatkash bo’lib, uyidagi barcha ishlarni bir o’zi bajarib ketar edi. U kambag’al oilada tug’ilib o’sgan. Vittorianing oilasi katta bo’lganligi sababli u maktabni to’rtinchi sinfdanoq tark etadi. U qishloqqa borib ishlashi kerak edi. Vittoria hayoti davomida uch marta turmush qurib, uch marta turmushini buzgan, chunki unga uylangan yigitlarning birortasi yaxshi emas edi va bu uning onasini tushkunlikka solar edi. Vittoria onasi uchun o’zini olovga tashlashga ham tayyor ekanligini asarning bir epizodida ta’kidlab o’tadi. Vittoria ismli ikkinchi darajali personaji orqali nafaqat uy xizmatkori tasvirlangan, balki uy xizmatkori bo’lishiga qaramasdan o’z oilasining g’amxo’r oila a’zosi, xizmat qilayotgan uy egalariга hurmat, onaga bo’lgan mehr-muhabbat kabi tuyg’ular ham o’z aksini topadi.

Giuliananing oyisi. Yana bir ikkinchi darajali obrazlardan biri - bu Giuliananing oyisi. U Pieve di Monteseccoda yashar edi. Giuliananing oyisi shim tikuvchisi edi. U bir kichkinagina, qorong’u, zax, mebellar bilan to’la, ularni hech qayerga siljitib bo’lmaydigan uychada yashar edi. Ularning hech narsasi yo’q edi. Ustiga-ustak eri bilan ajrashgan, eri esa boshqa xotin bilan yashar edi. Giuliananing onasi har kuni eridan pul olish uchun uning oldiga, do’koniga borar edi. Uni eri xotiniga berishga puli yo’q sababli unga har safar shaker, qahva va shu kabi narsalardan berib yuborar, reining oldiga har safar borganida u bilan janjallashib, jaxli chiqib qo’lidagi soyabon hamda ichi qahva bilan bo’la sumkachasi bilan uyiga qaytib kelar edi. U har kuni bir xil bo’tqa-yu aralashmalar tayyorlardi. Va ularni kastryul idishiga joylab derazadagi tokchaga bir qator qilib taxlab chiqardi. Bundan tashqari uni jurnallarning rasmini qirqib ularni yig’ish odati bor edi. Qirqilgan rasmlar hamma joylarda sochilib yotardi, kravat ostida, stol ostida, devorlarga yopishtirilgan holatda, xullas , uyning hamma yerida to’zg’ib yotardi.

Elena. Elena Italiyaning Rim shahrida yashaydi. U qog’oz do’konida sotuvchi bo’lib ishlaydi. Giuliana Rimga qochib kelgandan so’ng Elena u bilan tanishib qolib, uning eng yaqin dugonasiga aylanadi. Elena bilan Giuliana yaqin dugona tutinishganlaridan keyin Elena dugonasiga to’g’ri yo’l ko’rsata boshlaydi, undan o’z mehrini ayamaydi, og’ir kunlarida g’amxo’rlik qiladi. Lekin shunday bo’lishiga

qaramasdan Elena pessimistlar, ya'ni hamma narsaning yomon tarafini o'ylaydiga shaxslar turidan ekanligi asarda yorqin tasvirlab berilgan.

Pietroning oyisi. Pietroning oyisi juda ham qattiqqo'l, hamma narsani bir ko'rishdan xotirasida saqlab qoladigan, uncha-muncha narsani yoqtirmaydigan ayol obrazi sifatida gavdalanadi. Pietro uni qarigina, bir bechora ayol ekanligini; yoshligida chiroyli, jozibali ayol bo'lganligini, oyisi yosh bo'lgan paytlarda bambardimon, urushlar natijasida uyi qulab ketganligini, o'sha voqealardan so'ng pulsiz, nochor ahvolga tushib qolganligini, asab tizimining ishdan chiqqanligini aytib o'tadi. O'g'lining qaysi qizga uylanishi unga unchalik qiziq emas edi, chunki kimni tanlamasin, oyisiga yoqmas edi. Giulianani rasmini ko'rib, bo'ladi deb qo'yadi, ya'ni u qiz haqida oxirigacha so'rab surishtirib o'tirmaydi. Unga hatto xizmatkor Vittoria ham yoqmagan. Pietroning oyisi ham xuddi Elena kabi pessimist ayol. Pietro Giuliana bilan bo'lgan suhbatlarning birida uning oyisi hamma ayollarga o'xshagan ayol ekanligini aytib o'tadi, balki bu so'zlar onasiga bo'lgan cheksiz mehri sababli aytilgandir, chunki oyisini asarda ishtirok etgan roli Pietro aytganlarining aksini ko'rsatadi.

Manolo. Manolo asarda ikkinchi darajali personaj sifatida qatnashgan. U qora uzun mo'ylovli, qorachadan kelgan, yuzining rangi o'chgan, qora g'amgin ko'zli, hech qachon kulmaydigan bir yigit. U har doim qora chiziq-chiziqli nuqtalari bor sviter kiyib yurardi. Manolo Giuliana ishga kirgan disk do'koniga disk eshitish uchun kelardi. O'sha yerda Giuliana bilan tanishib qoladi. Bir kichkina uyi bo'lib uyida mushuk boqardi. Manolo juda ham tartibli bo'ladi, hatto u ayollarga o'xshab dazmol qilishni, uyini tozalashni, kiyimlarini, idish-tovoqlarni yuvishni ham bilardi. Manolo bir marta turmush qurib, xotini bilan ajrashib ketganligi haqida ham asarda keltirib o'tilgan.

2.3 N.Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asarida makon va zamon talqini

Asarda quyidagi makon va zamon tizimlari keltirib o'tilgan: “Pietroning uyi, ko'prik, yanvar oyi, Grotte del Piccione, janoza, Fara Sabina, Romagna “Pieve di Montesecco”, Giulianani dadasining dorilar do'koni, Giuliananing oyisi yashaydigan uy, Roma, Campo dei Fiori, qog'oz do'koni, disk do'koni, Manoloning uyi, America, festa, via Margrutta, la piazza Bologna, Rossignanodagi Leopardi ko'chasi, Policlinico, caffè Aragno, Quartiere Trionfale.

Asar Pietroning uyidagi shlyapa mojarosi bilan Pietroning uyida boshlanadi. Pietroning uyi anchagina katta, shinam. Pietro bilan Giuliananing tanishganlariga bir oy bo'lgan va ularning turmush qurishganlariga esa endigina bir hafta bo'lgan. Biz bunga quyidagi epizodni o'qib guvohi bo'lamiz: - Pietro: “Noi è solo un mese che ci conosciamo” – Giuliana: “Non dire così, <un mese che ci conosciamo> come se io non fossi tua moglie” –Pietro: “Sei mia moglie da una settimana” [1141]. Giuliana bilan Pietroning tanishuvi taxminan yanvar oylariga to'g'ri keladi. Asardagi voqealar rivoji boshidan oxirigacha Pietroning uyida personajlar o'rtasidagi suhbat bilan olib boriladi. Bundan tashqari voqealar rivoji boshqa joylarda boshqa zamonlarda ham sodir bo'ladi. Bunga misol qilib Giuliananing Vittoriaga o'zining kechirgan hayoti haqida gapirib bergan so'zlaridan bilsak bo'ladi. Giuliana bir paytlar, Pietro bilan tanishganidan bir necha kun ilgari o'z hayotidan to'yib, boshqa yashashni xohlamay o'zini ko'prik ustidan pastga uloqtirmoqchi bo'ladi. Shunda uni Lamberto Genova ismli bir kishi uni bu ishni qilishdan qaytaradi. Bir necha kundan keyin Giulianani tushlikka Grotte del Piccione nomli qahvaxonaga taklif qiladi. Bu voqealar Giuliananing aytib bergan hikoyalaridagi “fleshback” makonlardir. Hikoyalar, xotiralarda eslatib o'tilgan makon va zamonlar misoliga Manoloning uyi, Giuliananing dadasi ishlaydigan dorilar do'konini, Giuliana ishlagan qog'oz, disklar do'konlarini kiritishimiz mumkin. Lekin asosiy real, hozirda sodir bo'layotgan zamon va makon asosan Pietroning uyida bo'lib o'tadi. Har bir makon va zamonga ta'rif berib ketadigan bo'lsak ular quyidagicha tasvirlanadi: Fara Sabina: Vittoria oyisi bilan yashaydigan uy joylashgan qishloqchanning nomi. Romanga (Pieve di Montesecco):

Giuliananing oyisi, uning o'zi yashagan viloyat nomi. Giuliananing yoshligi o'sha yerda o'tgan, ya'ni 17 yoshgacha, uyidan qochib ketguniga qarar. Giuliananing oyisa hali ham o'sha yerda, bir kichkinagina uyda yashaydi. Uydagi uy jihozlari ko'pligidan, uyining yo'laklari, xonalari kichkina ekanligidan yurishga joy yo'q. Giulianani dadasining dorilar do'koni: Giuliananing oyisi bilan dadasi ajrashgan bo'lib, ular alohida yashashadi. Uning dadasi ikkinchi oilasi va birinchi oilasini boqish uchun o'sha yerda ishlaydi. Giuliananing oyisi eridan pul olish uchun boradigan bittayu bitta joyi ham o'sha yer, erini faqat o'sha yerdan izlab topardi. Roma (Campo dei Fiori): Giuliana uyidan qochib ketganidan so'ng to'g'ri Romagadagi Campo dei Fioriga, dugonasining oldiga unikida yashash uchun boradi. Qog'oz do'koni: Giuliana aktrisa yoki ballerina bo'lish orzusini amalga oshirolmaydi, ancha kunlar o'tib ketadi va Giuliananing yashashi, kun kechirishi uchun puli qolmaydi. Shuning uchun ham u qog'oz do'koniga sotuvchi bo'lib ishga kiradi. Ammo u yerdan kunlarning birida siyoh to'la idishni mijozlardan birining kiyimiga to'kib yuborgani uchun zudlik bilan ishdan bo'shatiladi. Disk do'koni: Giuliana qog'oz do'konidan ishdan bo'shatilganidan so'ng, bir necha kun ishsiz yuradi, ammo kunlar o'tar-o'tmas uni bir Paoluccio ismli odam disk do'koniga ishga taklif qiladi va Giuliana u yerda ancha vaqt ishlab qoladi. Manoloning uyi: Giuliana disk do'konida ishlaydigan vaqtlari u yerga bir qoraroqdan kelgan yigit har kuni disk eshitishga kelardi. Giuliana unga oshiq bo'lib qoladi va kunlar o'tgandan keyin u yigit Giulianani o'z uyiga taklif qiladi. Uning uyi toza, sinam bo'ladi, chunki Manolo tozalikka e'tibor qaratadiganlardan edi. Uyida mushuk boqar edi. Giuliana u yerda Ancha vaqt yashab qoladi, hatto Manolo uni tashlab ketib qolgan taqdirda ham. America: Asarda America ham eslatib o'tiladi, ya'ni Giuliana Manoloni uyida ancha yashagandan keyin kunlarning birida Manoloning sobiq xotini Topazia bilan tanishib qoladi. Ular qalin dugona tutinishadi va bir kuni Topazia o'zining dam olish kunida Amerikaga jo'nab ketmoqchi ekanligini Giulianaga aytib o'tadi va jo'nab ketadi. Festa (bazz): Topazia Amerikaga jo'nab ketganligi sababli Giuliana dugonasi Elenaning oldiga qaytib ketadi. Kunlarning birida Giuliana Elenaning do'stlaridan birini, bir suratlashni, uchratib qoladi va o'sha

suratkash Giulianani bazm kechasiga taklif qiladi. Margrutta ko'chasi: Giuliana taklif etilgan bazm bo'ladigan uy joylashgan ko'chalardan birining nomi. Aynan o'sha yerdagi bazmda Giuliana bilan Pietro uchrashib qolishadi. La piazza Bologna: Uy xizmatkori Vittoria eng zo'r tovuq go'shti sotiladigan ko'cha o'sha yer ekanligini aytib o'tadi va u yerdan tovuq go'shti olib kelmoqchi bo'ladi. Rossignanodagi Leopardi ko'chasi: Pietroning oyisi bilan dadasi bir kuni Rossignano degan qishloqchaga dam olib kelish uchun borishadi va Leopardi ko'chasida chiroyli gullab turgan ginestra (sariq gul)ni ko'rib uning dadasi o'sha gulga maftun bo'lib qoladi va shu sababli ham uning dadasi qizining ismini shu ko'chadagi o'sgan gulga qiyoslab Ginestra deb qo'yadi. Policlinico: Vittoria bundan ikki yil oldin oyisining kasal bo'lganligi sababli uni shifoxonaga olib borishga majbur bo'ladi. U yerda shifokorlar uning oyisini davolaydilar. Operatsiyadan biro y o'tgandan keyin uning oyisi sog'ayib ketadi. Vittoria hozirgacha o'sha yerdagi oyisini davolagan shifokorlarni yo'qlab turadi va tashakkur bildirib keladi.caffè Aragno: Bu kafeda Pietroning oyisi birinchi marta Giulianani uchratgani haqida aytib o'tadi. O'sha kafeda Giuliana bilan Topazianing muzqaymoq olayotganini ko'rgani haqida Giulianaga aytadi va Giuliana buni tasdiqlaydi. Quartiere Trionfale: Asardagi eng oxirgi eslatib o'tilgan zoy mana shu yer bo'lib, asarning yakunlovchi nuqtasi hisoblanadi. Ya'ni, Pietro Giulianadan oxirgi marta shlyapam qani deb so'raydi, chunki Pietro Trionfale mahallasidagi bir mijozining oldiga borishi kerak edi. Giuliana uning shlyapasini topib bermaydi, Pietro shlyapasiz chiqib ketaman deb uyidan chiqib ketadi. Xullas shunday qilib komediya janrida yozilgan bu dialogic asar mana shu nuqtada tugaydi.

2.4 N.Ginzburgning “Ti ho sposato per allegria” asaridagi troplar

Natalia Ginzburg yozgan bu asar har tomonlama mantiq, ma'noga, tarbiyaviy-oilaviy ahamiyatga ega bo'lishidan tashqari, bu asarda ko'pgina iboralar, o'xshatishlar, metafora, kattalashtirish, kichiklashtirish, tazod, taqlid va takrorlanishlardan foydalanib asarning yaxlit bir ajoyib shaklga kelishiga zamin yaratib bergan. Biz asarni tahlil qilganimizda, bu kabi adabiy tasvir vositalaridan

foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Asar boshi Pietro ismli bosh qahramonning shlyapa izlashi bilan boshlanadi. Bu kommedianing boshidan kichkinagina bir kinoya bilan boshlanishi asarni qanchalar badiiy tasviriy vositalar bilan boyitilganligi haqida darak beradi: Pietro: "Il mio cappello dov'è ?" Giuliana: "Hai un cappello". Bu yerda Pietro xotinidan shlyapam qani deb so'ragan savoliga kinoya qilib, seni shlyapang boe edimi deb javob qaytaradi. Bu italyan tilida "ironia" deb ataladi. Yana boshqa vaziyatlarni ham ko'rib chiqsak. Misol uchun, "come se io non fossi tua moglie" "Xuddi men sening xotining emasdek" [1141], bu yerda esa o'xshatish tasvir vositasi qo'llanilgan. Asarning boshqa qismlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, yanada qiziqroq tasviriy vositalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Giuliana: "Lo sai quando l'ho visto l'ultima volta ?" Pietro: "Ma tu forse non l'hai visto !" [1142]. Bu yerda esa juda bir qiziq tasviriy vosita qo'llanilganki, bu vaziyatda Pietro va Giuliana bir-biriga savol-javob tarzida so'rayotgan bir mavzuda gap ketayotganday ko'rinadi, aslida esa Giuliananing aytgan savoliga Pietro aslida boshqa narsani nazarda tutib unga javob qaytargan edi. Lekin Giuliana buni savoliga berilayotgan javobi deb tushunadi. Bu tasviriy vosita italyan tilida "situazione ambigua" deyiladi. Ya'ni bitta gapni qo'llagan holda, ikki xil ma'noni tushunishimiz mumkin. Yana misol qilib Pietroning "Geniale. Genialissimo" kinoyali gapini olishimiz mumkin. Bu yerda kinoya bilan birgalikda yana darajalantirish ham ishlatilgan. Yoki Giuliana tomonidan aytilgan quyidagi gapni qarab chiqsak, Giuliana: "Un gatto bianco, grosso come una pecora, con una coda che non finiva mai" [1150]. Bu yerda birinchi gapi "un gatto bianco, grosso come una pecora" – o'xshatish bo'lsa, ikkinchi "con una coda che non finiva mai" gapida esa bo'rttirish tasviriy vositasidan foydalanilgan. Vittoria tomonidan aytilgan "Io per mia madre potrei buttarmi nel fuoco" [1146] gapida esa metaforadan foydalanilgan. Bu yerda Vittoria o'z onasi uchun o'zini jonidan ham kechishga ham tayyorligi haqida gapiradi. Giuliana: "Certe musiche tristi, tristi..." [1152]. Bu yerda esa bir so'zning takrorlanishi orqali so'zning ma'nosi kuchaytirilgan. Ya'ni, bir xil g'amgin g'amgin qo'shiqlar deb qo'shiqning naqadar o'ta og'irligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, N.Ginzburg o'zining bu komedik asarida juda ham ko'plab

o'xshatish-u kinoyalardan foydalangan va bu tasviriy vositalar asarning bebaholigini belgilab berish bilan bir qatorda, uning har bir o'quvchining diqqatini tortishiga xizmat qiladi.

II bobga xulosa

Bu bob yuzasidan shularni xulosa qilib aytishim mumkinki, N.Ginzburg bu dramatik asarini qoyilmaqom tarzda yaratib, unda oilada tez-tez sodir bo'lib turadigan ba'zi kamchilik-u kelishmovchiliklarni komedik tarzda olib chiqolganligi taqsinga sazovor. Asar bosh va ikkinchi darajali qahramonlari orqali har bitta detal aniq va tushunarli tarzda yoritilib berilganligi e'tibordan chetda qolmaydi. Shlyapa muammosi bilan boshlangan asar oxirigacha o'sha muammoning hal qilinmaganligicha qolib ketishi bilan tugaydi, lekin bu orada mahoratli Ginzburg asari orqali bizni qanchadan-qancha bo'lib o'tgan mojarolar, er-xotin muammolari, kelin-qaynona munosabatlari, do'stlik, mehr-oqibat, oila to'g'risida bosh qotirishimizga, hayotda qay tarzda yashash, qanday oila qurish to'grisida bosh qotirish kerakligi haqida ko'p to'xtalib o'tadi. Xulosam shundan iboratki, biz bu asarni o'qib, tahlil qilib, kerakli bo'lgan yaxshi tomonlarini o'zimizga olib, qilingan xatolardan esa xulosa chiqarib, ularni o'z hayotimizda qaytarmaslikka harakat qilishimiz kerak.

XULOSA

Kurs ishi bo'yicha umumiy xulosani aytadigan bo'lsak, Natalia Ginzburg italyan zamonaviy adabiyotida mohir, ko'zga ko'ringan, o'z ishining ustasi, u nafaqat adabiyot sohasida mohir qalam sohibasi, balki u mohir romannavis hamda adabiyotshunos sifatida ham ommaga o'z nomini tanitgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Natalia Ginzburgning yozgan asarlari, romanlari nafaqat Italiyada, balki dunyoning boshqa nuqtalarida ham sevib o'qiladi. U qanchalik og'ir sharoitda yashamasin, shunga qaramasdan u o'z ijodini tashlab qo'ymaydi, balki faqat va faqat olg'a intiladi hamda bu intilishlar, harakatlar o'z mevasini beradi. Natalia Ginzburg yaratgan asarlarning ko'plab qismi uning o'z hayoti bilan bog'liq ekanligiga yaqqol guvoh bo'lamiz. Buni biz uning ko'pincha oila, ayol, munosabatlar, qiyinchiliklar to'g'risida yozilgan asarlaridan ko'rishimiz mumkin.

U shunday asarlar yaratganki, siz bu asarlarni o'qib uning qanchalik serqirra ijodkor bo'lganligini fahmlay olasiz va bu kabi asarlarni boshqa asarlar bilan also tenglashtirib bo'lmaydi. Uning asarlaridagi soddalik va samimiyligni boshqa asarlardan topishimiz mumkin, lekin uning asarlari butunlay o'zgacha uslubda yozilgan. Har bir asarida o'zgacha muhit va o'zgacha jarayonlar yoritilgan. "Ti ho sposato per allegria" asari va asar qahramonlari N.Ginzburg tomonidan komedik yo'nalishda yozilgan bo'lib, har bir asar qahramonining aniq bir roli borligi, har biri o'ziga xos rollarni ijro etishi har bir o'quvchining e'tiborini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. Asar qahramonlari bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, agarda ularning biri asarda ishtirok etmasa asar voqealar rivoji ko'ngildagidek chiqmay qolishi o'quvchi e'tiborini o'ziga tortish bilan bir qatorda, o'quvchiga asarni bir o'qishda o'qib tugatish imkoniyatini yaratib beradi, ya'ni bu asarni o'qigan odam o'zini asar o'qishdan to'xtatolmay qoladi. Bu esa yozuvchining o'z maqsadiga erishganligidan, asar o'z maromiga yetganidan dalolat beradi. Bu asarni o'qigan har bir o'quvchi o'ziga kerakli xulosa chiqarsa; oila, do'stlik, mehr-muhabbat haqida biroz chuqurroq o'ylasa, asarda keltirilgan yaxshi tomonlarni o'zida namoyon qila olsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. “O`zbekiston buyuk kelajak sari” – Toshkent “O`zbekiston”. 1998
2. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” Toshkent, “Ma`naviyat” nashriyoti, 2008y, 83-bet.
3. N.Ginzburg. “Tutti i nostril ieri” – “Bizning hamma kechagi kunimiz”. 1952
4. O`zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.- T.:Fan,1983.
5. Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi.-T.:Fan,1994
6. Natalia Ginzburg “Ti ho sposato per allegria” asari

Lug`atlar

7. Claudio Manella, Cesara Pallante “Guida ai verbi Italiani”. Progetto Lingua Edizioni. Firenze, Italia 2006
8. Dardano M, Trionfe P. “LA LINGUA ITALIANA” Copyright N.Zanichelli. S.p.A, Bologna 1985
9. Vladimir Kovalev il KOVALEV Dizionario russo-italiano, italiano-russo© 2000-Zanichelli, Bologna (Italia).
10. “Современный итальянско-русский и русско-итальянский словарь”. Moskva, Kiev 2010

Internet saytlar

www.biografieonline.it

www.italialibri.net

www.treccani.it

www.ziyonet.uz

www.wikipedia.it